

**DALA QIRQBO‘G‘IMI (EQUISETUM ARVENSE L.). VA POYALI
QIRQBO‘G‘IM (EQUISETUM RAMOSISSIMUM DIESF.).
HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT**

*Umurzakova Farangiz Baxtiyarovna
Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

Dala qirqbo‘g‘imi (Equisetum arvense L.). Ko‘p yillik sporali o‘t o‘simplik hisoblanib, odatda 40 sm balandlikda va kam hollarda 50 sm gacha bo‘lgan, o‘rmalovchi ildizpoyali o‘simplik hisoblanadi.



O‘simplik xom-ashyosi tayyorlanishi va uning sifati. Qirqbo‘g‘in xom-ashyosi yozda tayyorlanadi, poyasining pastki qismi xom-ashyo hisoblanmaydi. Quritishdan oldin boshqa o‘simplik aralashmalaridan, shu jumladan boshqa qirqbo‘g‘in turlaridan ham xalos etiladi. O’tni yaxshi havo yaxshi aylanadigan tomlarda yoki shiypon ostida 5-7 sm qalinlikda qog‘oz yoki material ustiga yoygan holda quritiladi.

XI DF talablariga ko‘ra qirqbo‘g‘in o‘ti kulrang yashil rangli, kuchsiz o‘ziga xos hidli, ozgina nordonroq ta’mga ega bo‘lishi kerak. Namlik 13% dan ko‘p bo‘lmasligi, umumiy kul 24% dan oshmasligi, 1 sm kichik maydalangan bo‘laklari 10% dan ko‘p bo‘lmasligi, o‘simplikning boshqa qismlari 1% dan ko‘p bo‘lmasligi, organik aralashma 1% dan oshmasligi, mineral aralashma 0,5% dan ko‘p bo‘lmasligi, qirqbo‘g‘inning boshqa turlarining miqdori 4% dan oshmasligi zarur.

O‘zbekistonning tog‘li hududlarida tabiiy zahirasi yetarli darajada. Har yili 100 tonnagacha xom-ashyosini tayyorlash mumkin.

Tibbiyotda qo‘llanilishi va kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda o‘simplikning yer ustki qismi ishlatiladi.

Yurak xastaliklarini davolashda qirqbo‘g‘indan olinadigan preparatlar siydik haydovchi vosita, shuningdek, o‘pka-yurak yetishmovchiligi bilan bog‘liq shishlarni

davolashda foydalaniladi.

Qirqbo‘g‘imning qaynatma va damlamalari siyidik yo‘llarining kasalliklarida, gemorroidal va bachadondan qon ketganida ishlatiladi hamda organizmning qo‘rg‘oshindan zaharlanganida foydalaniladi.

O‘simlik nefrit va nefrozlarni davolashda qat’iyan man etilgan, sababi u buyrakka ziyon yetkazishi mumkin.

Dala qirqbo‘g‘imidan tayyorlanadigan qaynatma - mahsulotdan 10 g miqdorda olib sirlangan idishga solinadi, 200 ml qaynatilgan suv quyilib, og‘zi berk idishda, 30 daqiqa suv hammomida qizdiriladi. So‘ngra 10 daqiqa mobaynida sovutiladi, dokadan o‘tkaziladi, qolgan mahsulot siqiladi. Olingan qaynatmaga dastlabki hajmi 200 ml bo‘lguncha qaynagan suv solinadi. Qaynatmani salqin joyda ikki kundan oshmasdan saqlash mumkin. Kuniga 2-3 mahal 1/3 stakan miqdorida ovqatdan keyin 1 soat o‘tib qabul qilinadi.

Dala qirqbo‘g‘imining suyuq ekstraktini 1/2 choy qoshig‘ida kuniga 3-4 marta ichish mumkin.

Qirqbo‘g‘imning tarkibida olma, akonit, shavel, kremniy kislotalari (2,5% gacha), oshlovchi moddalar, achchiq modda, smola, 1-5% saponin, ekvizetrin, flavonoidlar, 4,7 mg % karotin, 30-90 mg% askorbin kislotasi va boshqa moddalar bo‘ladi.

Poyali qirqbo‘g‘im (*Equisetum ramosissimum* Diesf.). Ko‘p yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, uzun ildizpoyali o‘simlik hisoblanadi. Balandligi 30 sm dan 100 sm gacha. Poyalari qishlamaydi. Shoxlari qirrasimon, yashil-kulrang, 10 tagacha hosil qiladi. Barglari voronkasimon, markaziy qismi oq rang bilan chegaranlangan. Sporalari may va iyul oylari hosil qiladi. Vegetativ usulda ko‘payganda sezilarli darajada katta masshtabli maydonlarni egallaydi.



Tibbiyotda qo'llanilishi. O'simlikning yer ustki qismi qaynatmasidan ich ketishi, qichishish va isitmada keng foydalaniladi. Markaziy Osiyoda yer ustki qismi qaynatmasi ich ketishida keng qo'llaniladi. O'simlikdan tayyorlangan sharbat Markaziy Osiyoda oshqozon-ichak infeksiyalari va ichki qon ketish kasalliklarida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xolmatov X.X., Axmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent, 2006.
2. Ahmedov O', Ergashev A.A. Abzalov, Yulchiyeva M., Mustafakulov D. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. "Tashakkur bo'stoni" nashriyoti. Toshkent, 2018.
3. Бурмистров А. Н., Никитина В. А. Медоносные растения и их пыльца: Справочник. — М.: Росагропромиздат, 1990. — С. 103. — 192 с. — ISBN 5-260-00145-1